



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/3 (12)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

**TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOVA Galina Karimovna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*  
**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna** – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*  
**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*  
**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*  
**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – *tibbiyot fanlari nomzodi.*  
**ZOXIDOV Azamat Azamjonovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**ZIYAYEV Azamad Xamidovich** – *tarix fanlari doktori, professor.*  
**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – *psixologiya fanlari doktori.*  
**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор.*  
**Сандова Галина Каримовна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – *доктор психологических наук, профессор.*  
**Абдураманов Хамид Худайbergenovich** (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Бекмуратов Адхам Шарипович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщины и гендерного равенства.*  
**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – *доктор педагогических наук, профессор.*  
**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Сандов Акмал Холматович** – *доктор юридических наук, профессор.*  
**Якубжанова Дилобар Батировна** – *доктор педагогических наук, доцент.*  
**Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна** – *кандидат медицинских наук.*  
**Зокидов Азамат Азамjonovich** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Зияев Азамат Хамидович** – *доктор исторических наук, профессор.*  
**Абдусаматов Хасанбой Усмонjon угли** – *доктор психологических наук.*  
**Туракулов Улугбек Холбутаевич** – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

**THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**  
*(Editor-in-Chief) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

**MEMBERS OF THE EDITING BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*  
**Saidova Galina Karimovna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Shoumarov Ghayrat Bakhramovich** – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*  
**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Marufova Gulnora Makhmudovna** – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*  
**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*  
**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Saidov Akmal Kholmatovich** – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*  
**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*  
**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – *Candidate of Medical sciences.*  
**Zokhidov Azamat Azamjonovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Ziyayev Azamad Khamidovich** – *Doctor of Historical sciences, Professor.*  
**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – *Doctor of Psychological Sciences.*  
**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

**XALQARO TAHRIR HAY'ATI:**

**Doktor Rashmini Koparkar,**  
*Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti*  
*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*  
*Javoharlal Neru universiteti,*  
*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**  
*Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,*  
*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**  
*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*  
*London biznes va moliya maktabi,*  
*Singapur*

**МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Доктор Рашмини Копаркар,**  
*Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,*  
*Школа международных исследований,*  
*Университет Джавахарлала Неру,*  
*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина Иосифовна,**  
*Челябинский государственный институт культуры,*  
*доктор педагогических наук,*  
*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**  
*Руководитель Технологического факультета*  
*Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур*

**INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:**

**Dr. Rashmini Koparkar**  
*Assistant Professor*  
*Centre for Russian and Central Asian Studies*  
*School of International Studies*  
*Jawaharlal Nehru University*  
*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**  
*Chelyabinsk State Institute of Culture*  
*Doctor of Pedagogical Sciences,*  
*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**  
*Head, School of Technology*  
*London School of Business and Finance, Singapore*

*MENEJMENT*

**Иноятова С.Р.** Сравнительный анализ эффективности тренинговой программы по совершенствованию профессионально-важных качеств у лидеров молодежи.....4

*SOTSILOGIYA*

**Butayeva X.Y.** Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uyi sharoitiga moslashtirishning sotsiologik xususiyatlari .....10

**Kadirova Z.A., Gaziyeva S.S.** Intellektual migratsiyani tadqiq etishning konseptual asoslari .....14

**Norboyeva S.M.** Talabalarda ma’naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda gender tenglik va farqlarni hisobga olishning nazariy asoslari.....21

*OILA VA JAMIYAT*

**Xatamov B.Q.** O‘smirlar ijtimoiylashuvda virtual olam vositalaridan foydalanishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv mezonlari .....26

**Rahimova M.** Oilaga kelinning moslashish jarayonini psixologik jihatdan tadqiq etish .....32

**Sadullayev Sh.** Ayollarda oila-ish balansi ko‘rsatkichini shakllantirishning metodologik jihatlari .....37

*PSIXOLOGIYA*

**Султанова А.А.** Стоит ли замалчивать о проблемах суицида в Узбекистане? .....44

**Ismaylova R.** Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda kognitiv xulq-atvor terapiyasi texnikalarining imkoniyatlari .....51

**Sharapova D.B.** ‘Housewife syndrome’ as a psychological problem .....57

**Axmedova D.O.** Migranlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili .....68

**Nurbayeva X.U.** Gender identifikatsiyaning etnomadaniy xususiyatlari .....74

*ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR*

**Ochilova B.M.** Ta’lim – gender tengligini ta’minlashda kuchli vosita.....79

**Djoldasova S.** Ayollarning biznesdagi huquq va imkoniyatlarini kengaytiruvchi biznes modellar .....88

**Komilova X.T.** Xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati mazmuni va tahlil.....96

**Suvankulov M.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ichki ishlar organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga oid normalari tahlili.....102

**Nurdinova Sh.** Migratsiyaning feminizatsiyalashuvi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ta’siri .....108

**Nurmatova N.U.** Vitagen ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish .....115



**Mehmonali Suvankulov**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti  
Yuridik fanlar kafedrası boshlig'i,  
yur. fan. nomz., dotsent*

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING ICHKI ISHLAR ORGANLARI VA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARIGA OID NORMALARI TAHLILI

**Annotatsiya.** Maqola ichki ishlar organlari (politsiya) va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini hamda o'zaro hamkorligini huquqiy tartibga soluvchi konstitutsiyaviy normalar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda eski va yangi tahrirdagi Konstitutsiyalardagi normalar qiyosiy usulda o'rganilgan va o'zaro farqli jihatları yoritilgan. Shuningdek, dunyo davlatlari konstitutsiyalari qiyosiy-huquqiy usullar asosida tahlil qilinib, ichki ishlar organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari) faoliyatini konstitutsiyaviy normalar asosida tartibga solingani tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar:** konstitutsiya, konstitutsiyaviy normalar, ichki ishlar organlari (politsiya), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari), qiyosiy-huquqiy tahlil.

**Аннотация.** Статья посвящена анализу конституционных норм, законодательно регулирующих деятельность и взаимное сотрудничество органов внутренних дел (полиции) и органов самоуправления граждан, в котором в сравнительном порядке изучаются нормы старой и новой Конституции, и выделены различные аспекты. Также на основе сравнительно-правовых методов были проанализированы конституции стран мира и выявлено, что деятельность органов внутренних дел и органов самоуправления граждан (органов местного самоуправления) регулируется на основе конституционных норм.

**Ключевые слова:** конституция, конституционные нормы, органы внутренних дел (полиция), органы самоуправления граждан (органы местного самоуправления), сравнительно-правовой анализ.

**Annotation.** The article is devoted to the analysis of constitutional norms, legislatively regulating the activities and mutual cooperation of internal affairs bodies (police) and citizens' self-government bodies, in which the norms of the old and new Constitutions are studied in a comparative manner and various aspects are highlighted. Also, based on comparative legal methods, the constitutions of countries of the world were analyzed and it was revealed that the activities of internal affairs bodies and citizens' self-government bodies (local self-government bodies) are regulated on the basis of constitutional norms.

**Keywords:** constitution, constitutional norms, internal affairs bodies (police), citizens' self-government bodies (local self-government bodies), comparative legal analysis.

**Kirish.** Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga soʻzsi rioya etilishini taʼminlash, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish boʻyicha amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarning muhim sharti hisoblanadi.

2022–2026-yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”ning birinchi muhim ustuvor yoʻnalishining “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” deb belgilanishi ham mamlakatimizda inson huquqlariga nechogʻlik darajada ahamiyat berilayotganidan dalolat beradi<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarning talablarini soʻzsi bajarish, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni toʻla roʻyobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimizning bosh mezoni boʻlib qoladi.... Inson qadri deganda, biz har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini taʼminlashni nazarda tutamiz....”, – deb taʼkidlagan<sup>2</sup>. Zero, ichki ishlar organlari va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining hamkorligidagi faoliyatning asl maqsadi ham mamlakatimizda “obod va xavfsiz mahalla” konsepsiyasi asosida fuqarolarini oʻz mahallasida tinch va xavfsiz hayot kechirishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berishga xizmat qilishdir.

**Maqsad va uni asoslash.** Maʼlumki, jamiyatda muhim ahamiyatga ega boʻlgan ijtimoiy munosabatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi, bunda ishtirokchilarning subyektiv huquq va yuridik majburiyatlari belgilanadi, huquqlar roʻyobga chiqarilishi va majburiyatlar bajarilishi taʼminlanadi. Zero, hamkorlikning asosiy belgilaridan biri maqsad, vazifa va funksiyalarning huquqiy tartibga solinganligidir. Yaʼni hamkorlik predmeti va obyekt, tomonlarning huquq va majburiyatlari normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilansagina, bunday hamkorlik samarali boʻlishiga erishish mumkin, aks holda, hamkorlik oʻz oldiga qoʻygan maqsadiga erisha olmaydi.

Mamlakatimizda ilmiy jamoatchilik tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarining tahlillariga koʻra,

<sup>1</sup> Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон

<sup>2</sup> Yangi Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини катъий давом эттирамиз // <https://president.uz/uz/lists/view/4743>

davlat va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari oʻzaro hamkorligining huquqiy asoslari<sup>3</sup>, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlari ijtimoiy hamkorligining huquqiy jihatlari<sup>4</sup>, mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqaruvi oʻzaro munosabatining huquqiy asoslari<sup>5</sup>, profilaktika inspektorining fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari bilan hamkorligining huquqiy asoslari<sup>6</sup> tadqiqot obyektida oʻrganilgan boʻlsa-da, ammo ichki ishlar organlari bilan fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari hamkorligining huquqiy jihatlari kompleks ravishda oʻrganilmagan. Shu bois mazkur ilmiy maqolada bevosita ichki ishlar organlarining fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlari bilan hamkorligining huquqiy asoslarini, yaʼni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni yuridik kuchiga koʻra tasniflab, qonun va qonunosti hujjatlarining har biriga alohida-alohida toʻxtalib, ularning oʻziga xos jihatlari, shuningdek, oʻzaro munosabatlari va farqlarini ilmiy jihatdan yondashgan holda tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ichki ishlar organlari va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining hamkorligini huquqiy taʼminlovchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim oʻrinni egallaydi.

Konstitutsiya butun huquqiy tizimning poydevori, uni hamjihatlashtiruvchi markazi, “tizim” hosil qiluvchi oʻzak boʻlib, barcha huquq va qonunchilik sohalarini shakllantiruvchi hamda rivojlantiruvchi yuridik asosidir. Qonunchilikning hamma tarmoqlari bevosita Konstitutsiya prinsiplariga tayanadi. Binobarin, u qonunchilik tarmoqlari vujudga kelishi va amal qilishi uchun sarchashma – manba boʻlib xizmat qiladi<sup>7</sup>. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-

<sup>3</sup> Якубов Ш.У. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш. Юрид. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 61.

<sup>4</sup> Латипов Б.И. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлигини такомиллаштириш. Юрид. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 61.

<sup>5</sup> Исмаилова Г.С. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти ва ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини либераллаштиришнинг давлат-ҳуқуқий йўналишлари. Юрид. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 256 б.

<sup>6</sup> Зиёдуллаев М.З. Ички ишлар органларининг таянч пунктларини бошқаришни такомиллаштириш: Юрид. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 171 б.

<sup>7</sup> Одилқориев Х.Т. Конституция ва ижтимоий давлатчилик. – Тошкент: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. – Б. 57.

iyun kuni yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyani yaratish borasida Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvida "Yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim. Bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" g'oyasini hamda hozirgi islohotlarimizning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" degan yondashuvni Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirib, amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishimiz zarur. Ya'ni insonning qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o'rinda turishi kerak"<sup>8</sup>, – deb ta'kidlab o'tgani bejiz emas, albatta.

#### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

Tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ichki ishlar organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi normalarni mazkur subyektlar faoliyatiga, shuningdek, ularning hamkorligiga mansubligidan kelib chiqqan holda ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin. *Birinchi guruhga* bevosita fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga oid konstitutsiyaviy normalar, *ikkinchi guruhga* ichki ishlar organlari faoliyatiga oid konstitutsiyaviy normalar kiritilgan bo'lib, ularni mantiqiy ketma-ketlikda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining eski tahrirdagi Konstitutsiyasining 105-moddasida shunday deyilgan: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchisini saylaydi.

O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi"<sup>9</sup>.

Mazkur konstitutsiyaviy norma xususida olimlar tomonidan turli xil fikrlar ilgari surilgan bo'lib, ayrim olimlar<sup>10</sup> mazkur normani haqiqiy

o'zbekona qadriyatni aks ettiradigan deb hisoblasalar, boshqa olimlar<sup>11</sup> esa asosiy qonunda mahalla institutining huquqiy maqomi yanada kengroq yoritilishi lozimligini ta'kidlaydilar. Biz uchun muhimi – mazkur noyob fuqarolik jamiyati institutiga konstitutsiyaviy maqom berilganligi. Zero, davlatimiz mahallaning erkin faoliyati uchun qonunchilik asoslarini yaratish orqali o'zining konstitutsiyaviy majburiyatini bajargan, bu orqali o'zaro hamkorlikka tamal toshi qo'yilgan<sup>12</sup>.

Bundan tashqari, eski tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida: O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi<sup>13</sup>, deb belgilangan. Bu konstitutsiyaviy normaning mazmunidan ko'rinib turibdiki, o'zini o'zi boshqarish instituti fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida ishtirok etishini ta'minlovchi muhim vositadir.

Eski tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32- va 105-moddalaridagi konstitutsiyaviy normalar fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga ta'sis etuvchi, tashkil qiluvchi norma sifatida konstitutsiyaviy maqomini belgilab bergan. Zero, mahalla necha yillar osha kelayotgan milliy qadriyatlar maskani, shu bilan birga, aholi turmush farovonligini yuksaltirishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga yaqindan ko'maklashayotgan, ilg'or tashabbuslarni ro'yobga chiqarayotgan fuqarolik jamiyati institutidir<sup>14</sup>.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining asosiy bo'g'inini ifodalaydigan, "mahalla" atamasi birinchi marta Konstitutsiyaga kiritildi va konstitutsiyaviy maqom berildi.

Eski tahrirdagi Konstitutsiyadagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga to'g'ridan

<sup>11</sup> Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Тошкент, 2001. – Б. 366.

<sup>12</sup> Якубов Ш.У. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш. Юрид.фан.докт. ...дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 106.

<sup>13</sup> "Халқ сўзи" газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон.

<sup>14</sup> Маликова Г.Р. Ўзбекистонда маҳалла институтининг шаклланиши // Маҳалла кўзгуси. 2018. – №1. – Б.11.

<sup>8</sup> Мирзиёев Ш.М. Конституциявий ислохотларимизнинг бош мақсади – инсон кадри, халқ манфаатини амалда таъминлашди <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/21/president-suggestions/>

<sup>9</sup> "Халқ сўзи" газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон.

<sup>10</sup> Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Тошкент: Шарк, 2002. – Б. 45-49.

to'g'ri taalluqli bo'lgan ikkita modda, ya'ni 32-, 105-moddalar va ushbu moddalar tarkibidagi 3 ta konstitutsiyaviy norma mavjud bo'lgan bo'lsa, bundan farqli o'laroq O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida bevosita fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi ikkita bob: XIII, XXI boblar, oltita modda, ya'ni 20-, 34-, 36-, 40-, 69-, 127-moddalar va ushbu moddalar tarkibidagi 8 ta konstitutsiyaviy normalar shular jumlasidandir.

Yangi O'zbekistonni barpo etishdek oliy maqsad sari qadam qo'yish jarayoni, albatta, asosiy qonunimizni yangilash zarurligini taqozo etdi. Shu sababli 2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilindi<sup>15</sup>.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan O'zbekistonda yangi ijtimoiy-siyosiy muhit shakllandi, davlat o'ziga ulkan ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlarni oldi va o'zini ijtimoiy davlat sifatida e'lon qildi.

Bosh qomusimiz milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi bosqichida jamiyat va davlatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab, Yangi O'zbekistonning strategik maqsadlarini ro'yobga chiqarishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib berdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini bevosita huquqiy tartibga soluvchi konstitutsiyaviy normalar tahlili quyidagi xulosalarni shakllantirishga asos bo'ldi:

*birinchidan*, insonning huquq va erkinliklari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining mohiyati va mazmunini tashkil etishini (20-modda);

*ikkinchidan*, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarga hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashning shartlilikini (34-modda);

*uchinchidan*, har bir fuqaroni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaat qilish huquqiga ega ekanligini (40-modda);

*to'rtinchidan*, fuqarolik jamiyati instituti birinchi marotaba konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlanib, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari esa fuqarolik jamiyatining eng faol instituti sifatida belgilanganini (69-modda);

*beshinchidan*, birinchi marta fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining konstitutsiyaviy maqomi

<sup>15</sup> *Qonunchilik maълumotlari milliy bazasi*, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

alohida bobda shakllantirilib (XXI bob), davlat hokimiyati tizimiga kirmasligiga ishora qiluvchi qonunchilikni tizimlashtirish modeli sifatida e'tirof etilganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqiy asoslarini konstitutsiyaviy huquq jihatdan mustahkamlagan holda ularning mustaqil faoliyat olib borishi uchun huquqiy kafil bo'ldi.

Dunyo davlatlari konstitutsiyalarining qiyosiy-huquqiy tahlili asosida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini konstitutsiyaviy normalar orqali huquqiy tartibga solinganini shartli ravishda uch xil guruhga ajratilganini ko'rishimiz mumkin:

*Birinchi guruh*: AQSh, Kanada va boshqa ayrim davlatlarning Konstitutsiyalarida mahalliy o'zini o'zi boshqarish institutlarining huquqiy maqomi umuman belgilanmagan<sup>16</sup>.

*Ikkinchi guruh*: Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari" deb nomlangan 8-bobning 130–133-moddalari<sup>17</sup>, Turkmaniston Respublikasi Konstitutsiyasining "Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari" deb nomlangan IV bo'limning 115–118-moddalari<sup>18</sup>, Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari va o'zini o'zi boshqarish" nomli 6-bobning 76–78-moddalari<sup>19</sup>, Belarus Respublikasi Konstitutsiyasining 5-bo'lim, 117-, 124-moddalarida<sup>20</sup> o'z aksini topgan.

Mazkur guruhga taalluqli bo'lgan davlatlarning konstitutsiyalarida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati to'liq huquqiy tartibga solingan.

*Uchinchi guruh*: Germaniya Konstitutsiyasining 28-moddasi<sup>21</sup>, Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining "Mahalliy davlat boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish organlari" deb nomlangan VIII bo'lim 89-moddalarida<sup>22</sup> qisqacha, umumlashgan

<sup>16</sup> Qarang: Конституция мира (Сборник конституций государств мира. Т.2) Сост. И авторы выступительных статей У.Т.Таджиханов, А.Х.Саидов. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 1997. – С. 389-395.

<sup>17</sup> <http://www.constitution.ru>

<sup>18</sup> <https://continent-online.com>

<sup>19</sup> <https://mfa.tj/ru/main/tadzhikistan/konstitutsiya>

<sup>20</sup> <https://president.gov.by/ru/gosudarstvo/constitution>

<sup>21</sup> Қаранг: Конституция мира (Сборник конституций государств мира. Т.2) Сост. И авторы выступительных статей У.Т.Таджиханов, А.Х.Саидов. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 1997. – С. 389-395.

<sup>22</sup> [https://www.akorda.kz/ru/official\\_documents/constitution](https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution)

tavsif berilganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Hamkorlikning subyekti bo'lgan ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi konstitutsiyaviy normalarni aniqlash maqsadida eski va yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tahlil qilish jarayonida to'g'ridan to'g'ri, bevosita taalluqli bo'lgan normalar mavjud bo'lmasa-da, barcha davlat organlari va ularning faoliyatiga taalluqli bo'lgan normalar borligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"<sup>23</sup>, deb belgilangan bo'lib, mazkur konstitutsiyaviy norma ichki ishlar organlarini davlat organi sifatida fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishi, jamiyat va fuqarolar uchun normal xavfsiz muhitni yaratishi, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlashdek dolzarb vaziflarni bajarishini nazarda tutadi. Demak, konstitutsiyaviy normada ichki ishlar organlari jumlasini ishlatimasa-da, ammo ushbu normani ishora qiluvchi norma sifatida talqin qilish mumkin. Zero, Konstitutsiya yaratilayotgan paytda uning ijodkorlari "jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i – insondir", degan mantiqdan kelib chiqib ish tutgan edilar"<sup>24</sup>.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 9-fevralda ichki ishlar organlari tizimi rahbariyati hamda vakillari bilan o'tkazgan video-selektor yig'ilishida "ichki ishlar idoralari shunday ishlashi kerakki, toki xalq davlatdan rozi bo'lsin... Jinoyat-qidiruv faoliyatida jiddiy nuqsonlar uchramoqda, ayrim joylarda huquqni muhofaza qiluvchi organlari o'rtasidagi hamkorlik talab darajasida emas"<sup>25</sup>, – deb ta'kidlagani ham bejiz emas, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi davlat organlari faoliyatini bilan bog'liq normalar o'z-o'zidan ichki ishlar organlariga tegishli ekanini inkor qilmaydi, ya'ni bu kabi normalarni biz ichki ishlar organlariga bilvosita bog'liq bo'lgan, ya'ni havola

<sup>23</sup> Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

<sup>24</sup> Конституция ва ижтимоий давлатчилик. Х.Т.Одилкориев – Тошкент: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022 й. – 59-бет.

<sup>25</sup> Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, осуда ва фаровон ҳаёти химоя қилинмоғи керак // Халқ сўзи, 2017 йил 10 февраль

normalar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasi 3-xatboshida<sup>26</sup> "Davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashadi", deyilishining o'ziyoz mazkur konstitutsiyaviy normani ichki ishlar organini davlat organi sifatida nazarda tutayotganini va bilvosita taalluqli ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

Xalqaro hujjatlarning qiyosiy-huquqiy tahlillari natijasiga ko'ra, ichki ishlar organlari (politsiya) ning faoliyatini huquqiy tartibga solinganligi bo'yicha dunyo davlatlari konstitutsiyalarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

**Birinchi guruhga** oid davlatlar konstitutsiyalarida, jumladan, *MDH davlatlaridan* Rossiya, Belorus, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Ukraina, *Yevropa davlatlaridan* Fransiya, Finlyandiya, Latviya konstitutsiyalarida bevosita politsiyani tashkil qilish va uning faoliyatini belgilovchi birorta ham konstitutsiyaviy normalar mavjud emas<sup>27</sup>.

**Ikkinchiga guruhga** oid davlatlar, jumladan, *MDH davlatlaridan* Armaniston Konstitutsiyasining 44-moddasi, Gruziya Konstitutsiyasining 3, 25, 78-moddalari, *Yevropa davlatlaridan* Litva Konstitutsiyasining 141-moddasi, Avstriya Konstitutsiyasining 10, 11, 102, 118-moddalari, Germaniya Asosiy qonunining 34, 105-moddalari, Belgiya Konstitutsiyasining 26-moddasi, Daniya Konstitutsiyasining 79-moddasi, Ispaniya Konstitutsiyasining 17.1, 70.1-moddalarida bevosita politsiya faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi normalar belgilangan<sup>28</sup>.

**Yakuniy qism.** Dunyo konstitutsiyalarining tahlillaridan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, har bir davlat o'z konstitutsiyasini shakllantirishda ichki ishlar organlari (politsiya) va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishda mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda yondashilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari tahliliga ko'ra ichki ishlar organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga oid normalar bevosita va bilvosita taalluqli normalardan iborat ekanini ko'rishimiz mumkin.

<sup>26</sup> Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

<sup>27</sup> <https://legalns.com/конституция> страна мира

<sup>28</sup> <https://legalns.com/конституция> страна мира

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
2. Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз // <https://president.uz/uz/lists/view/4743>.
3. Якубов Ш.У. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш. Юрид. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 61.
4. Латипов Б.И. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлигини такомиллаштириш. Юрид. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 61.
5. Исмаилова Г.С. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти ва ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини либераллаштиришнинг давлат-ҳуқуқий йўналишлари. Юрид. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 256 б.
6. Зиёдуллаев М.З. Ички ишлар органларининг таянч пунктларини бошқаришни такомиллаштириш: Юрид. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 171 б.
7. Одилқориев Х.Т. Конституция ва ижтимоий давлатчилик. – Тошкент: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. – Б. 57.
8. Мирзиёев Ш.М. Конституциявий ислохотларимизнинг бош мақсади – инсон кадри, халқ манфаатини амалда таъминлашдир <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/21/president-suggestions/>
9. “Халқ сўзи” газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон.
10. Одилқориев Х.Т. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Тошкент: Шарк. 2002. – Б. 45-49.
11. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Тошкент, 2001. – Б. 366.
12. Якубов Ш.У. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш. Юрид. фан. докт., – Тошкент, 2018. – Б. 106.
13. “Халқ сўзи” газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон.
14. Маликова Г.Р. Ўзбекистонда маҳалла институтининг шаклланиши // Маҳалла кўзгуси. 2018. – №1. – Б.11.
15. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон
16. Qarang: Конституция мира (Сборник конституций государств мира. Т.2) Сост. И авторы выступительных статей У.Т.Таджиханов, А.Х.Саидов. – Тошкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 1997. – С. 389-395.
17. <http://www.constitution.ru>
18. <https://continent-online.com>
19. <https://mfa.tj/ru/main/tadzhikistan/konstitutsiya>
20. <https://president.gov.by/ru/gosudarstvo/constitution>
21. Қаранг: Конституция мира (Сборник конституций государств мира. Т.2) Сост. И авторы выступительных статей У.Т.Таджиханов, А.Х.Саидов. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистан, 1997. – С. 389-395.
22. [https://www.akorda.kz/ru/official\\_documents/constitution](https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution)
23. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
24. Конституция ва ижтимоий давлатчилик. Х.Т.Одилқориев. – Тошкент: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022 й. – 59-бет.
25. Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, осуда ва фаровон ҳаёти ҳимоя қилинмоғи керак // Халқ сўзи, 2017 йил 10 февраль.
26. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
27. <https://legalns.com/конституция страна мира>
28. <https://legalns.com/конституция страна мира>

**MUASSIS:**

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,  
Razzakova N., Sobirova E.,  
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

